

QARINDOSHLIK NOMLARI BILAN BOG‘LIQ UNDALMA VA MUROJAAT VOSITALARI

Komila Abduraximova Ulug‘bek qizi

Namangan davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilida qarindoshlik nomlari asosida shakllangan undalma va murojaat vositalarining lingvistik hamda pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu birliklarning nutq jarayonidagi funksional vazifalari, semantik kengayishi va ijtimoiy munosabatlarni ifodalashdagi o‘rni yoritiladi. Qarindoshlik nomlarining real qarindoshlik doirasidan tashqarida qo‘llanishi orqali hurmat, samimiylik va nutq etiketi bilan bog‘liq jihatlar asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: undalma, murojaat vositalari, qarindoshlik nomlari, nutq etiketi, pragmatika.

Аннотация: В статье анализируются лингвистические и прагматические особенности обращений и вокативных форм, образованных на основе терминов родства в узбекском языке. Рассматриваются их функциональные характеристики в процессе общения, семантическое расширение и роль в выражении социальных отношений. Особое внимание уделяется использованию терминов родства вне рамок реального родства как средств выражения уважения и речевого этикета.

Ключевые слова: обращение, вокатив, термины родства, речевой этикет, прагматика.

Annotation: This article examines the linguistic and pragmatic features of vocatives and forms of address based on kinship terms in the Uzbek language. The study highlights their functional roles in communication, semantic extension, and significance in expressing social relations. Special attention is given to the use of kinship terms beyond actual family relationships as markers of respect, familiarity, and speech etiquette.

Key words: vocative, forms of address, kinship terms, speech etiquette, pragmatics.

Qarindoshlik nomlari bilan bog‘liq undalma va murojaat vositalari o‘zbek tilining milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvistik birliklardir. Ular nutqda nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy munosabat, hurmat va hissiy holatni ifodalovchi pragmatik omil sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ushbu birliklarni o‘rganish o‘zbek nutq madaniyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Qarindoshlik nomlari bilan bog‘liq murojaat vositalari – genetik xususiyatga ega bo‘lib, mazkur guruh o‘z navbatida quyidagicha bo‘linadi:

1. Yaqin qarindoshlar nomlari bilan bog'liq murojaat vositalari

Oyi, domlamiz ikki so'm pul olib kelinglar deb buyurdi... (Oybek "Bolalik" qissasi)

Yaqin qarindoshlik nomlari bilan bog'liq murojaat vositalari avtobiografik xarakterga ega bo'lib, asosan, yaqin qarindoshlar, ya'ni oila a'zolariga qaratilgan murojaatlarni ifodalaydi. Mazkur murojaat shakli ham o'z ichki guruhlariga ega bo'lib, uni quyidagicha tasniflash mumkin.

Otaga murojaat (padarim, padari buzrukvorim, valadim, dada, ada, ota)

Dadachi, dada, enam bugun sizga uch qozon palov damlab qo'ydilar. (O'. Hoshimov "Ikki karra – ikki besh" qissasi)

Tirikchilik-da, qanday qilay, ota? (Oybek "Bolalik" qissasi)

Mazkur shakllar umumiy nom ostida otaga murojaatni ifodalagan bo'lsa-da, ichki semantik jihatdan bir-biridan farqlanadi. Jumladan, padarim, padari buzrukvorim, valadim shakllari badiiy-nazmiy nutqqa xos bo'lib, fors va arab tillaridan o'zlashgan birliklardir. Qolgan shakllar (dada, ada, ota) sof o'zbekcha bo'lib, ular orasida ota asosiy dominanta hisoblanadi, dada va ada esa bir leksemaning so'zlashuv uslubida faol qo'llaniladigan variantlari sanaladi.

Dadachi, dada, enam bugun sizga uch qozon palov damlab qo'ydilar. (O'. Hoshimov "Ikki karra – ikki besh" qissasi)

Onaga murojaat (validam, validayi muhtarama, ona, oyi, aya, ena)

Ena, men ham boray, qarashaman... (Sh. Xolmirzayev "Zov ostida adashuv" hikoyasi)

O'zbek xalqida onaga murojaat qilishda muloyimlik, yaqinlik va erkalash semalari ustuvor bo'lib, murojaat shakllarida kichraytirish-erkalash hamda egalik morfemalarining qo'llanishi keng uchraydi. Yuqorida keltirilgan shakllardan validam, validayi muhtarama, shuningdek, erkalash va mehribonlik ma'nosini ifodalovchi mushtiparim, mehribonim kabi birliklar badiiy nutqqa xoslangan bo'lsa, oyi, aya, ena shakllari so'zlashuv nutqida faol ishlatiladi. Ona leksemasi ushbu guruhning dominant birligi hisoblanadi.

Qarang, oyi, yetti og'ayni orasidagi eng yorug' yulduz – meniki... (O'. Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasi)

Ena, men ham boray, qarashaman... (Sh. Xolmirzayev "Zov ostida adashuv" hikoyasi)

Akaga murojaat (aka, og'a)

Qo'ying, akajon, – dedi Naima. (Sh. Xolmirzayev "Kechagi kun kecha" hikoyasi)

Opaga murojaat (opa)

Opa, to'y-ku, nima qilib ishlab o'tiribsiz? (Oybek "Bolalik" qissasi)

Ukaga murojaat (uka, ini)

Yur, ukam, mashinada tikishni o'rgataman. (Oybek "Bolalik" qissasi)

Singilga murojaat (singil)

Singlim, sharm-hayoning vaqti emas... (Sh. Xolmirzayev "Kechagi kun kecha" hikoyasi)

Boboga murojaat (bobo, buva, doda)

Qayoqqa boramiz, buva, Mirahmad buvaning oldigami? (Oybek "Bolalik" qissasi)

Buviga murojaat (buvi, momo, bibi)

Buvijon, ish ko'p, juda zerikdim. (Oybek "Bolalik" qissasi)

Momo, vaqtim ziq, sizdan bir narsa so'ray deb keldim. (Sh. Xolmirzayev "Ahad Mirzo yig'ladi" hikoyasi)

Er-turmush o'rtoqqa murojaat (dadasi, adasi, (bolalarimning) otasi, bobosi)

Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg'otmang. (A. Qahhor "Bemor" hikoyasi)

Shuningdek, ayol tomonidan eriga qilingan murojaatlarda hurmat yuzasidan uning ismi aytilmay, O'zbekistonning ayrim hududlarida katta o'g'ilning ismiga otasi murojaat shakli qo'shib ishlatiladi.

Ayol-turmush o'rtoqqa murojaat (onasi, ayasi, enasi, xotin, azizam)

Qaysi go'rdan paydo bo'ldi u? Otib o'ldiraymi, onasi. (Sh. Xolmirzayev "Ukki sayrayapti" hikoyasi)

O'g'il farzandga murojaat (o'g'lim, ulim, bolam, kenjatoyim, chirog'im)

Abror, qo'lga suv ol, o'g'lim. (A. Qahhor "Asror bobo" hikoyasi)

Men o'g'irlik qiloyotganim yo'q-ku, bolam. (O'. Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasi)

Qiz farzandga murojaat (qizim, bolam)

O'zingni teja, qizim, o'rningni qalin qilib burkanib yot, terlasang yorisharsan, qizim. (A. Qodiriy "O'tkan kunlar" romani)

Yaqin qarindosh nomlari bilan bog'liq murojaat vositalarida hurmat, ehtirom, erkalash va ovutish kabi yashirin semalar mavjud bo'lib, ular kontekst va murojaat tarkibidagi turli morfemalar orqali yuzaga chiqadi. Xususan, yaqin qarindoshlarga qaratilgan murojaatlarda egalik hamda kichraytirish-erkalash morfemalarining qo'llanishi xarakterlidir. Farzandlarga murojaat doimo egalik morfemasi bilan ifodalanadi (o'g'lim, bolam, qizim), bu holat farzandni suyish va erkalash semalarini anglatadi. Biroq ota-ona hamda bobo-buvilarga murojaatda egalik morfemalari qo'llanilmaydi (ota, dada, ona, oyi, bobo, buvi). Buning sababi o'zbek xalqining tarixan ota-ona va bobo-buvilarga nisbatan itoatkor munosabatda bo'lib kelganligi bo'lib, bu holat nafaqat xatti-harakatlarda, balki til birliklarida, jumladan, murojaat shakllarida ham aks etgan.

2. Uzoq qarindoshlar nomlari bilan bog'liq murojaat vositalari

Amaki, hikmatli gaplar ko'p ekan. (Oybek "Bolalik" qissasi)

Qani, fотиha bering, amma. (Oybek “Bolalik” qissasi)

Tog‘a, men darrov kelaman! (Sh. Xolmirzayev “Ukki sayrayapti” hikoyasi)

Nima qilib qo‘ydingiz, xola. (O‘. Hoshimov “To‘ylar muborak” dramasi)

Qani, jiyan, nonni to‘g‘rab sho‘rvani urib oling. (Oybek “Bolalik” qissasi)

Qarindoshlik nomlari bilan bog‘liq murojaat vositalari qarindosh-urug‘ terminlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu terminlar ayrim tilshunoslar tomonidan ikki guruhga ajratiladi:

a) qon-qarindoshlik otlari: *aka, amma, amaki, bobo, buvi, jiyan, nevara, ona, opa, ota, singil, tog‘a, uka, xola, chevara, evara, o‘g‘il, qiz;*

b) nikoh qarindoshligi otlari: *boja, kelin, kuyov, ovsin, pochcha, xotin, er, yanga, qayin, quda, qayliq, o‘gay¹.*

Quda, bu ishning shundoq bo‘lishini kim biluvdi, deysiz. (S. Ahmad “Poyqadam” hikoyasi)

Yanga, upangizdan bering. (S. Ahmad “Cho‘l burguti” hikoyasi)

Kelinjon, chiroqni kechgacha yoqmanglar... (O. Muxtor “Egilgan bosh”)

Pochcha, siz nima qilib turibsiz bu yerda? (O. Muxtor “Egilgan bosh”)

“Shundaymi, unda, maylingiz. O‘zi, kelin qayerda, quda?”

“Ay, qaynim-e, ay, kalla-e!” (T. Murod “Ot kishnagan oqshom”)

3. Qarindosh bo‘lmagan shaxslarga qarindoshlik nomlari bilan murojaat

So‘zingizga tushunolmadim, ota, – dedi, – shundoq bo‘lsa ham javob beraman: bu kungacha siz yolg‘iz meninggina emas, balki butun oilamizga otaliq mavqaida turib, doimo yaxshilik tilab kelgansiz. (A. Qodiriy “O‘tkan kunlar” romani)

O‘zbek tilida qarindosh bo‘lmagan shaxslarga qarindoshlik nomlari bilan murojaat qilish holatlari keng tarqalgan bo‘lib, bu hodisa o‘ziga xos leksik-semantik xususiyatga ega. Bunday murojaatlarda so‘zlovchi tomonidan tinglovchiga qarindoshdek munosabat bildiriladi va bu, avvalo, hurmat-ehtiromni ifodalaydi. Shu bilan birga, muloqot jarayonidagi ish-harakatni tez, oson va ko‘pincha so‘zlovchi manfaatiga muvofiq tarzda hal qilish ma‘nosi ham mujassam bo‘ladi.

Mazkur holatda murojaat shakllari kommunikantlarning jinsi va yoshiga qarab tanlanadi:

– *Siz ham biz bilan birga bo‘lingiz, quvonchli bu... – dedi u va uyalgansimon kulib, yerga qaradi.*

– *Rahmat, singlim, – titrab gapirdi Sultonmurod, – to‘ylaringga borurmen... Baxtlaring quyoshdek porloq bo‘lsin, xayr!* (Oybek “Navoiy” romani)

Mazkur dialogdan ko‘rinib turibdiki, erkak so‘zlovchi tomonidan qarindosh bo‘lmagan ayol tinglovchiga nisbatan singlim qarindoshlik termini qo‘llangan. Bu holat so‘zlovchining yoshi tinglovchinikidan katta ekanligini bildiradi va ana shu omil

¹ Narziyeva M.J. O‘zbek tilida shaxsni yosh jihatidan tavsiflovchi otlarning ma‘no tarkibi: filol. fan. nomz... diss. – Buxoro, 1992. 49–bet.

bunday murojaat shaklining tanlanishiga sabab bo'ladi. Agar so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida haqiqiy qarindoshlik munosabati mavjud bo'lsa, murojaat shakli sifatida ularning ismlaridan foydalanilishi ham kuzatiladi.

Katta yoshdagi erkaklarga murojaatda tog'a, amaki, keksa kishilarga nisbatan bobo (buva), doda, hurmatsizlik ma'nosida esa boboy, qariya shakllari ishlatiladi. Kichik yoshdagi bolalarga bola (kay), o'smir va undan katta yoshdagi yigitlarga yigitcha, yigit, polvon shakllari bilan murojaat qilinadi. Biroq bu birliklar ham shartli bo'lib, murojaatda yosh, mansab va jins omillariga qarab shakllar o'zgarib boradi. Bu yerda faqat jonli so'zlashuv tiliga xos umumiy holatlar keltirildi. Jumladan, tengdosh yigitlar o'zaro oshna, o'rtoq, do'st, bo'la shakllaridan, ayrim hollarda esa aka yoki uka kabi murojaat birliklaridan foydalanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G., Shukurov Sh. O'zbek tili grammatikasi. Morfologiya va sintaksis. — Toshkent: O'qituvchi, 2001.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli lug'ati. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. — Toshkent: Fan, 2002.
4. Yo'ldoshev B. Nutq madaniyati va uslubi asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2014.
5. G'ulomov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: Fan, 1998.
6. Qur'onov D. Badiiy matn lingvistikasi. — Toshkent: Akademnashr, 2018.
7. Safarov Sh. Pragmatik lingvistika. — Toshkent: Fan, 2008.